

**Physically present children with intellectual disabilities
the importance of national folk games in upbringing**

Teshaboeva Feruza Raximovna

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika kafedrası v.b.dosenti (PhD)

Usmonjonova Saodatxon Mirzaxamdorovna

QDPI Maxsus pedagogika: (Oligifrenopedagogika)

yo'nalishi talabasi

Abstract: This article discusses the role of national folk games in the physical preparation of mentally retarded children for life, the development of physical qualities of these students, in particular, the fact that national movement games are one of the most effective methods of physical education, and intellectual, moral development of students with intellectual disabilities. and it is thought that it is an important tool in the joint successful implementation of sophistication education.

Key words: education, teaching, method, process, quality, teacher, action games, physical education, mental retardation, folk games.

Yurtimizda nafaqat sog'lom balki ruxiy va jismoniy jihatdan kamchiligi bo'lgan bolalarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday bolalarni ham jismonan imkon qadar rivojlantirish, chaqqon, irodali, vatanparvarlik ruxida tarbiyalab voyaga yetkazish uchun jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining ahamiyati kattadir. Ushbu ishlar samarali bajarilishi uchun bolalarning eng kichik yoshidan boshlab milliy harakatli o'yinlar vositasi bilan jismoniy salomatlik "poydevorini qurish" ni amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish g'oyat muxim ahamiyatga ega. Shu bois respublikamizda jismoniy madaniyatning maqsad va vazifalari hukumatning hamda respublika madaniyat va sport ishlari vazirligining qarorlarida kelib chiqqan xolda amalga oshiriladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan me'yoriy xujjatlar mamlakatimizda nuqsonli bolalarni sog'lom bolalar kabi barcha xuquqlarga ega ekanliklarini yana bir karra isbotlaydi.

Xalqimiz farzandlarining jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy madaniyat jarayonida amalga oshiriladi. Respublikada amalga oshirayotgan maxsus muassasalardagi jismoniy madaniyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi ruxiy va jismoniy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarni xayotga imkon qadar tayyorlashdan iborat. Jismoniy madaniyatni nuqsonli bolalarda shakllantirish uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir.

Jismoniy madaniyat jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi: a) sog'liqni mustahkamlash organizmni chiniqtirish va jismoniy rivojlanish darajasini hamda ish qobiliyatini oshirish; b) hayotga zarur bo'ladigan, jumladan, amaliy xarakterga ega bo'lgan harakat, malaka va ko'nikmani egallash; v) kishining ma'naviy va irodali sifatini tarbiyalash; g) jismoniy sifat (tezkorlik, kuch, epchillik, chidamlik) ni o'stirish; d) maxsus sport mashqini bajarish texnikasini egallash.

Shu bilan birga o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarini to'plash va ularni hayotga tadbiiq etish, ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifa aqli zaif bolalarni hayotga tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga ham katta ma'suliyat yuklaydi.

Aqli zaif bolalarni hayotga jismoniy jihatdan tarbiyalashga imkon beradigan, o'quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bu muammoni maxsus maktab o'quvchilari jismoniy madaniyatini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog'lab kelgan uzviylikda ko'rib chiqish lozimligini keltirib chiqaradi, bunda milliy xalq o'yinlarining roli katta ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. SHuning uchun xalqimizning asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan milliy harakatli o'yinlarini avaylab-asrab keyingi avlodga yetkazish yo'llarini izlash, ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etish bizning maqsadimizdir.

Milliy xalq o'yinlarini xalqimizning bir necha yillik madaniy boyliklari haqidagi tasavvurlarini ma'lum darajada kengaytiradi, hozirgi hayotga singdirish yo'llarini boyitishga yordam beradi.

Milliy harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta'sirchan usullaridan bo'lib, o'quvchilarda aqliy, ahloqiy va nafosat tarbiyasini birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun bolalar o'yinlarining ruhi, tabiati, saviyasi, ishtirokchilarning hatti-harakatlari kabi jihatlariga ham e'tibor berish zarur.

Maxsus maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy madaniyatini qiziqarli va foydali o'tkazish uchun biz tavsiya etayotgan ba'zi milliy harakatli o'yinlardan foydalanishda ham xuddi shu xususiyatlarga e'tibor berish kerak.

Maxsus maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga muhabbat uyg'otish, xalq an'analarini avaylab-asrashga o'rgatish ko'p jihatdan o'zbek xalq milliy o'yinlaridan unumli foydalanib bilishga bog'liq. Chunki milliy harakatli o'yinlar orqali bola bir tomondan jismoniy bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, jismoniy madaniyaga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Xalq milliy harakatli o'yinlarining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o'rganish borasida talay ishlar qilindi. Bolalar va o'smirlarning harakat faolligini oshirishga yordam beradigan omillar: milliy

harakatli o'yinlar, milliy mashqlar elementlari, bellashuvlar va sport turlari, jismoniy tarbiyaning an'anaviy vositalaridan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

So'nggi yillarda professor F.N.Nasriddinov boshchiligida bir guruh mutaxassislar, yosh tadqiqotchilar milliy harakatli o'yinlarni o'rganish, ularni xalq o'rtasida ommalashtirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy ishlarni, nashrlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

Bu sohada professor A.Q.Atoyevning ilmiy ishlarini ham aytib o'tish o'rinlidir. Uning xalq o'yinlaridan maktabda, oilada, darsdan tashqarida, jamoat joylarida foydalanish haqidagi bolalarni tarbiyalashda chaqqonlik, epchilik darkor, kuch-quvvat kabi xususiyatlarining takomili to'g'risidagi tadqiqotlari qiziqish uyg'otadi. Bulardan tashqari har yili o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar va shu munosabat bilan nashr etilayotgan to'plamlarda ham xalq milliy harakatli o'yinlariga e'tibor kuchaygani, ularni o'rganish, to'plash borasida tadqiqotlar yaratilmoqda. SHu bilan birga maxsus pedagogika fani ham nuqsonli bolalarni jismoniy tarbiyasi, ularda harakatli sifatlarni rivojlantirish, muntazam olib boriladigan mashg'ulotlar orqali jismoniy madaniyatga ehtiyoj va qiziqishni uyg'otish muammolariga hamisha diqqat qilib keldi va kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev U. "Xalq o'yinlari milliy sport turlarini tiklash va aholini jismoniy tarbiyalashda ulardan keng foydalanish usullari" mavzusiga bag'ishlangan jumhuriyat milliy-amaliy anjumanining tezislari. 19-20 aprel 1991 yil 1-qism, B-12-15.
2. Abdumalikov R. Abdullayev A. Xalq milliy harakatli o'yinlari mazmunida ma'naviyat masalalari. T.: 1995.14 b.
3. Axmedova Z.M., Ayupova M.YU., Xamidova M.P. "Logopedik o'yin"
4. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "THE IMPORTANCE OF INCLUSIVE EDUCATION IN SOLVING THE PROBLEM OF EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS." Open Access Repository 4.3 (2023): 757-764.
5. Soliyevna, Mirbobayeva Nodirakhan. "FORMATION OF PROFESSIONAL DIRECTION OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3 (2023): 546-550.
6. Shuhratjon, Yuldashev Sodir Juraevich Muxammadjonov Shohruh. "Speech therapy games for children with speech defects." Confrencea 11.11 (2023): 68-72.
7. Rakhimovna, Teshaboyeva Feruza. "Didactic And Motivational Opportunities For Teaching In Higher Education On The Basis Of Innovative Technologies." *European Scholar Journal* 2.10 (2021): 70-71.

8. Solieva, Mirboboeva Nodirakhan. "FORMATION OF PROFESSIONAL MOTIVATION IN FUTURE DEFECTOLOGISTS." *Confrencea* 11.11 (2023): 138-142.
9. Kodirova, Feruzakhon Usmanovna, S. Z. Matupaeva, and Feruza Rakhimovna Teshaboeva. "Methodical cluster-an innovative mechanism to increase the efficiency of general secondary and inclusive education." (2020).
10. Shahnigor, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Khomidova. "FORMATION OF KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCES IN THE PROCESS OF TRAINING CHILDREN WITH HEARING DEFECTS TO WORK." *Confrencea* 11.11 (2023): 188-192.
11. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
12. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "COCHLEAR IMPLANTATION: AN INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY, MEDICINE, DEAF PEDAGOGY AND SPEECH THERAPY." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 321-330.
13. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan. "SOCIO-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
14. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 134-141.
15. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Vakhobova Munirakhan Sadirdinovna. "PECULIARITIES OF SPEECH OF CHILDREN WITH MOTOR ALALIA SPEECH DISORDER." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 851-858.
16. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 148-154.

Elektron ta'lim resurslari

17. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
18. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
19. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)